

## XALQIMIZ NUTQIDAGI NUTQIY KALIMALAR URF-ODAT VA AN'ANALARNING MAHSULIDIR

**Raximova Irodahon Bahodirovna**

O'qituvchi, Andijon davlat chet tillari instituti, Andijon, O'zbekiston,

E-mail: [rakhimova1974@gmail.com](mailto:rakhimova1974@gmail.com)

Har bir xalqning o'z tarixi, dini, madaniyat, san'ati, adabiyoti, urf-odat, rasm-rusumlari, an'ana va qadriyatlari; kiyim-kechaklari, pazandachiligi va boshqalar bor. O'z-o'zidan, bularning barchasini ifodalaydigan so'zlari, bu so'zlar asosida vujudga kelgan iboralari bor. Bularning barchasi milliylik belgilari, uning tarkibiy qismlari hisoblanadi.

H. Hamroyev[1.158]ning "Milliy xos so'zlar - realiyalar va badiiy tarjima" maqolasida **milliy kolorit** linguokulturologik leksemasiga quyidagicha ta'rif beradi: **milliy kolorit** bu badiiy asarda aks etgan milliy xususiyatlar yig'indisiga aytiladi. Tarjimon asarda aks etgan milliy koloritni his qilmay turib, asliy tarjimini sifatli amalga oshiro olmaydi.

o'z-o'zidan tilda paydo bo'lmaydi. Ularni shakllantiruvchi bir qator omillar mavjud. Birinchi navbatda, millatning milliy xususiyatlari, milliyliigi, urf-odatlarini asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Chunki har bir millatning o'ziga xos nutqiy kalimalar bor. Shundan kelib chiqib, birinchi navbatda, nutqiy kalimalarning vujudga keltiruvchi omillarning eng asosiysi milliy urf-odat va an'analar deb qarashimiz kerak bo'ladi.

U .Tursunov[1.154] milliy urf-odat an'analar haqida o'zining nazariy qarashlari haqida fikrlar ham bildirib ketgalar: milliy urf-odat an'analar - donishmandlik manbai, hayt sabog'i hisoblanadi. Tarixiy taraqqiyotning hal qiluvchi kuchi hisoblangan xalq mana shu urf-odat va an'analarning ijodkorlaridir. Jamoat uchun zarur bo'lgan barcha moddiy ne'matlarning-turar joy, oziq-ovqat, kiyim-kechak kabilarni mehnat malakasiga, ishlab-chiqarish tajribasiga ega bo'lgan kishilar bunyod etgani kabi qadimgi madaniy merosimiz an'ana va urf-odatlarimizni ham xalqimiz vujudga keltirgan. Bugungi kunning qadriga yetish uchun odamlar o'tmishni yaxshi bilishi kerak. Ildizsiz daraxt bo'lmaydi, daraxt qancha tomir o'tsa, u shuncha gullab yashnaydi, unib o'sadi-bejiz aytishmagan ota bobolarimiz.

O'zbek xalqining milliy an'analari avlod-dan-avlodga o'tib kelmoqda va yoshlarning tarbiyalashda katta rol o'ynamoqda. Qadimgi urf-odat, an'analarimiz bo'lmaganda edi, hozirgi turmush tarzi bo'lmasdi. Biz fikr yuritayotgan xalqimiz nutqidagi tayyor kalimalar mana shu urf-odat va an'analarning mahsulidir

Asliy matn: Go'sht ko'tarib yo'lakdan kirgan Solih maxdumning ko'zi Ra'noning shu holiga tushdi:

**Tarjima matni:** Solikh Mahdum saw Rano: **-Balli, Ra'no, ana jinnilik!-** dedi maxdum, **- atlas ko'ylak senga hayf,** senga bo'zdan boshqasi, albatta, hayf!

**-Atta girl,** Rano, good for you, what a mess! - Said Mahdum, - you are **supposed to wear only linen dress, not at-last<sup>22</sup>** one! You are not worth the atlas dress!

Tarjimon tomonidan **Balli, Ra'no** nutqiy kalimasiga berilgan "**Atta girl**" iborasi odatda, norasmiy dalda beruvchi ibora hisoblanib, ayol yoki qizni yaxshi ish qilgani yoki topshiriqni muvaffaqiyatli bajargani uchun maqtash va erkalashga nisbatan ham qo'llaniladi. Bu ibora qo'llab-quvvatlash va dalda berishning bir usuli hisoblanadi. Shuningdek, yana bu ibora kimnidir jinsidan qat'iy nazar, maqtovga sazovor biror yutuqqa erishganida rag'batlantirish ma'nosida ishlatilishi mumkin. Keltirilgan izohlarimizdan ko'rinib turibdiki, bu yerda **atta** nutqiy kalimasi maqtash yoki erkalashga emas, balki kesatiq ironiya nutqiy aktiga nisbatan qo'llanilgan. **Kinoya** nutqiy kalimasini o'zbek tilida berilgan izohini berib o'tsak: masxaralash, kulish uchun aytilgan pardali gap; qochirim, istehzo, piching, kesatiq. – Xo'sh, sizcha nima qilish kerak, o'qimishli akam! – dedi kinoya bilan Yo'lchi. Oybek, Qutlug' qon"[2.384]. Keltirilgan matnda Ra'noning otasining istezohli gaplari ma'nosidan kinoya nutqiy aktining mohiyati, gapning qo'llanish maqsadi asosida tavsiflanganligini, nutqiy akt piching, kesatiq ma'nosida murojaat qilganligini tushunishimiz mumkin.

Biz **Atta girl,** Rano, good for you, what a mess! Gapini o'rniga **Wow, What a silly girl, you are!** nutqiy kalimasini qo'llagan bo'lardik.

Keyingi matning taxlilini ham qilib o'tsak: **Asliy matn:** Ra'no o'rnidan turdi, dadasidan **uyalib loyliq qo'llarini orqasig'a yashirdi.**

**Tarjima matni:** Rano stood up and **hid her messy hands** behind herself being **embarrassed** from her father

**Uyalmoq[3.128]**-uyat-andisha his-sezgisini tuymoq. Er yigitning uyalgani-o'lgani. Maqol. Ortiq bir so'z deyolmadim Andishalik bu ishdan. Lekin otda uyalmadim "Hayr jonim' deyishdan.T.To'la.

**to be embarrassed[5.1]**- a person who is embarrassed feels shy, ashamed, or guilty about something. He looked a bit embarrassed. ... an embarrassed silence. Synonyms: ashamed, upset, shamed, uncomfortable. **Tarjimas:** xijolat bo'lgan odam o'zini uyatchan yoki biror narsadan aybdor his qiladi. U biroz xijolat tortdi. ... xijolatli sukunat. **Sinonimlar:** uyat, xafa, uyat, noqulay

**yashirmoq[4.314]**-l birov bilmaydigan, ko'rmaydigan yoki topa olmaydigan joyga qo'ymoq, berkitib qo'ymoq. Kalitni yashirmoq. Pulni yashirmoq. Yo'lchi uchun keltirilgan tugunchak yodiga tushdi. Uni paranjisiga o'rab, taxmonning burchagiga yashirib qo'ygan edi.Oybek, Tanlangan asarlar.

**to hid one's messy hands[5.3]**- kir yoki iflos qo'llarini yashirish iborasi boshqalarni ko'rishning oldini olish uchun qo'llarni samarali qoplaydigan yoki tozalaydigan usullarni topib berkitmoq

Yuqorida berilgan matnning konseptual tahlillaridan shunday hulosaga kelish kerakki, asliy matn linguokulturologik matn hisoblanib, unda o'zbek madaniyatida nihoyatda ustun turuvchi **uyatish** tuyg'usi yuksak darjada berilgan. Ra'no o'zini loy qo'llarini otasidan hijolat yuzasidan orqasiga yashirgani unga berilgan ma'naviy tarbiyaning buyukligandir deb o'ylaymiz. Bunday uyat, hijolat tuyg'usi faqat bizning o'zbekchilik madaniyatimizga hosdir. Matnning tarjimasiga kelsak, matnni o'girgan tarjimon o'zbek millatidan bo'lganligi bois, vaziyatni qalban tasavvur qilib tushungan holda o'girganligini ko'rishimiz mumkin. Chunki, o'zbek milliy oilalarida qiz farzand otasiga gap qaytarish u yoqda tursin, ko'zlari bilan qarab tik qarab turolmaydi. Bu ham milly madaniyatimizni yuksakligidandir deb o'ylaymiz.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Hamroyev H. Milliy xos so'zlar - realiyalar va badiiy tarjima I) Taijima madaniyati (Maqollar to'plami). - T.. 158-bet
2. O'zbek tilining izohli lug'ati.K.-harfi.-B.386
3. O'zbek tilining izohli lug'ati.Ya.-harfi.-B.128
4. O'zbek tilining izohli lug'ati.U-harfi.-B.314
5. <https://dictionary.cambridge.org>